



INNOVATIVE
WORLD

ISSN: 3030-3079

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

SHARQ AKADEMIK VA KO'P TARMOQLI
TADQIQOTLAR JURNALI

Scientific Journal



www.innoworld.net

+998 33 5668868



ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Volume 3, Issue 3
2025

Journal has been listed in different indexings

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:

www.innoworld.net

Andijon-2025



O'zbekiston jinoyat qonunchiligining amal qilish doirasida fuqarolik tamoyili: muammo va yechimlar

O'tayev O'tkirbek Matyoqubovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti
Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli katta
o'qituvchisi, dotsent, podpolkovnik

Annotasiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligining makonda amal qilish doirasida fuqarolik tamoyilining nazariy va amaliy jihatlariga ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Jinoyat qonuni, hudud, fuqaro, xorijiy tajriba, jinoyat, suiqasd, chet el, jazo.

Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi, sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan adolatli va insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish jinoyat qonunchiligi institutlarini takomillash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jinoyat qonunchiligining jinoyat kodeksida mustahkamlanishi, birinchi navbatda ijtimoiy munosabatlarni himoya qilish vositalarining huquqiy bazasi bo'lib hisoblanadi, ularning obyektiv va subyektiv hamda aniq jazo turlarini belgilaydi. Demak, demokratik davlatlarda inson huquq va erkinliklarining real kafolatlanishi shart sharoitlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Jinoyat qonunlari makon va zamon chegaralarida amal qiladi. Xalqaro huquqqa muvofiq chet el davlati hududida, o'zining fuqarolarini jinoiy qilmishlariga nisbatan davlatning jinoiy yurisdiksiyasini kengaytirishdan iborat xarakterga fuqarolik prinsipi deyiladi. Ushbu prinsip davlat hokimiyatining ustunligi va suverenitetiga asoslanadi. Unga ko'ra davlat, o'z fuqarolarining manfaatlarini himoya qiladi va ular qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, belgilangan qonun va qoidalariga rioya qilishini buyuradi. Agarda ular tomonidan ushbu qoidalar buzilgan bo'lsa, o'rnatilgan normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilmaganlik uchun ulardan javob talab qilishga haqli hisoblanadi. Aksariyat davlatlarda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida xam ushbu tamoyil nafaqat o'z fuqarolariga, balki O'zbekiston hududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan ham qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 12-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, boshqa davlat hududida jinoyat sodir etgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksiga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Buning uchun ular tomonidan sodir etilgan jinoyat qaysi davlat hududida sodir etilgan bo'lsa, o'sha davlatda jinoyat deb topilishi va bu shaxslar xorijiy davlat sudi bilan jazolanmagan bo'lishi shart.

Umume'tirof etilgan qoidalariga ko'ra, ko'rsatilgan shaxslar jinoyat sodir etishda aybdor deb topilganda, ularga O'zbekiston xududida qo'llaniladigan

jazo, hududida jinoyat sodir etilgan xorijiy davlat qonunida nazarda tutilgan sanksianing yuqori chegarasidan oshmasligi kerak. Jinoyat qonunchiligida mustahkamlangan asosiy qoidalaridan biri muayyan davlat hududidan tashqarida sodir etilgan jinoyat uchun, jinoyatchi shaxsning davlat bilan fuqarolik munosabatiga kirishishi xisoblanadi. Bunda jinoyat ushbu davlat fuqarosi, chet el fuqarosi hamda ushbu davlatda doimiy yashovchi va doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxs tomonidan sodir etilganligiga ko'ra jinoyat qonunchiligi qo'llanilishi turlicha talqin qilinadi. Fuqarolik tamoyiliga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda respublika xududida doimiy yashayotgan fuqorligi bo'lmagan shaxslar, ular qayerda bo'lishlaridan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga amal qilishlari shart. Shuning uchun, bu shaxslar ma'lum shart-sharoitlarga mos kelgan hollarda, ular jinoiy harakatni garchi boshqa davlat hududida sodir etgan bo'lsalar ham O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq javobgarlikka tortiladilar. Shunday qilib, fuqarolik tamoyili jinoyat kodeksi vazifalarini bajarishga yordam beradi, xususan, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalaydi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining 12-moddasi jinoyat qonunining amal qilish hududiy chegaralarini belgilaydi, bu o'rinda jinoyat kodeksining 11-moddasidan farqli o'laroq, fuqarolik tamoyili asos qilib olinadi va xududiylik tamoyilini to'ldirishga qaratiladi.

Jinoyat Kodeksining 12-moddasi 1-qismida fuqarolik tamoyilini umumiy shartlarini, shu yo'l bilan davlatimiz qonunchiligi hududiy amal qilish mezonlarini belgilaydi. Bu shartlar fuqarolik tamoyilining quyidagi tarkibiy elementlarini ifodalaydi:

- aniq muayyan subyektli tarkibi;
- tamoyilni qo'llashnint xududiy sohalari;
- jinoiy javobgarlikka tortish asoslari;
- O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq javobgarlikka tortishni istisno etuvchi holatlar.

Fuqarolik tamoyilining aniq muayyan subyektli tarkibi shuni bildiradiki, O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksini amal qilish doirasi qonunda ko'rsatilgan ma'lum toifadagi shaxslar, ya'ni O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va respublika xududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan chegaralanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi - bu qonun bo'yicha O'zbekiston Respublikasi fuqarosi maqomiga ega bo'lgan shaxsdir. Shaxsning davlat bilan o'zaro huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi yig'indisida ifodalanadigan hamda inson qadr-qimmati, asosiy huquqlari va erkinliklarini e'tirof etish hamda hurmat qilishga asoslanadigan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilash O'zbekistonda fuqarolik deyiladi. Bu faqat rasmiy mezon, sud tergov xodimlari har bir holatda shaxsning respublika bilan siyosiy-xuquqiy xolatini,

ya'ni shaxsning O'zbekiston respublikasi fuqaroligiga mansubligini, uni qachon olgani yoki fuqarolikdan chiqarilgani haqidagi faktni aniqlashi lozim.

Fuqarolik tamoyilining navbatdagi elementi, uning qo'llanishi mumkin bo'lgan xudud doirasidir. Bu o'rinda Jinoyat kodeksining hududiylik tamoyili fuqarolik tamoyiliga o'z navbatini topshiradi. Qonun talabiga binoan, fuqarolik tamoyili faqat jinoyat chet davlat xududida sodir etilgan holda qo'llaniladi, lekin umuman O'zbekiston hududidan tashqarida emas. Chunki O'zbekiston xududidan tashqarida, boshqa chet davlat xududiga kirmagan suv yoki havo hududida, ochiq dengiz yoki ochiq havo hududida, O'zbekiston bayrog'i ostida shuningdek O'zbekiston portida ro'yxatga qo'yilgan dengiz, daryo yoki xavo kemasida jinoyat sodir etilgan bo'lsa, u O'zbekiston xududida sodir etilgan deb hisoblanadi va jinoyatchi shaxs O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunining xududiylik tamoyiliga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Fuqarolik tamoyilining tarkibiy elementlaridan yana biri sifatida qonun jinoiy javobgarlikka tortish uchun asosni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ravishda belgilaydi. Agar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda respublika xududida doimiy yashayotgan fuqorligi bo'lmagan shaxslar chet davlat xududida jinoyat deb tan olinmagan, lekin O'zbekiston Respublikasi xududida shunday xarakterli jinoyat deb hisoblangan qilmishni sodir etgan bo'lsa, uni javobgarlikka tortish asossiz bo'ladi. Jinoiy javobgarlikka tortishga asos sifatida kodeks faqat boshqa davlat hududida sodir etilgan jinoyat faktini ko'rsatadi.

Shuni nazarda tutish lozimki, bu o'rinda konkret qilmishning jinoyat sifatida baholanishi uchun ikki shart mavjudligi talab etiladi:

1. Muayyan qilmish sodir etilgan davlatda ushbu qilmish uchun jinoiy javobgarlik belgilanganligi;
2. Ushbu qilmishning O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonuniga ko'ra jinoyat deb kvalifikatsiya qilinishi.

Yuqorida keltirilgan shartlar majmuining mavjud bo'lishi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bo'yicha shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo'ladi. Bunday ikki tomonlama jinoyat tamoyili xalqaro huquq prinsipidir. Bu qoidalar jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro huquqiy hamkorlik, boshqa suveren davlatlarning qonun hujjatlarini hurmat qilish g'oyalarini ifodalaydi. Shuningdek qonunchiligimizning inson erkinligi va xuquqlarini, uning eng oliy boyligi sifatida tan olish g'oyasini bildiradi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va fuqaroligi bo'lmasdan O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchilar chet davlat hududida jinoyat sodir etganda, o'sha mamlakatda bu qilmishlar jinoyat hisoblanmasa, buni aniqlash imkoni bo'lmaydi (masalan, besoqolbozlik, valyutalarni noqonuniy ayirboshlash va hokazo). Shuningdek, qilmish chet davlatda jinoyat hisoblanib, ammo O'zbekistonda jinoyat hisoblanmaydigan bo'lsa javobgarlikka tortilmaydi. Shuni yodda tutish kerakki, umumiy jinoiy huquqbuzarliklarning aksariyati (shaxsga yoki mulkka tajovuz qilish,

giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishi, qalbakilashtirish va boshqalar) barcha davlatlarning jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan. O'zbekiston fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan respublika hududida doimiy yashovchi shaxs boshqa davlat xududida sodir kilgan jinoyati uchun agar o'sha davlat qonuni bo'yicha jazolanmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonuni bo'yicha javobgarlikka tortilishi mumkin. Unga tayinlangan jazo, hududida jinoyat sodir etilgan chet davlat qonunida ushbu jinoyat uchun nazarda tutilgan jazoning yuqori chegarasidan oshmasligi kerak. Shunday qilib, O'zbekiston sudi jazo qo'llashda xorijiy jinoyat qonunlarini hisobga olishi lozim. Bunda adolat va insonparvarlik tamoyillari asosida qattiqroq jazolash mumkin emasligi, aybdor shaxs jinoyat sodir etilgan joyning qonunchiligiga muvofiq jazolanishi mumkinligida namoyon bo'ladi. Fuqarolik tamoyilining ushbu qoidasiga muvofiq, chet davlatda jinoyat sodir etgan shaxs, faqatgina o'sha davlat qonuni bo'yicha javobgarlikka tortilmagan bo'lsa jazolanishi mumkin. Xalqaro xuquqda "non bis in idem" ("bir xil narsa uchun ikki marta emas") tamoyili bor. Bu xalqaro prinsip O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 30-moddasi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksning 8-moddasida "Hyech kim ayni bir jinoyat uchun takroran hukm qilinishi mumkin emas" deb qat'iy belgilangan. Shu sababli, O'zbekiston jinoyat kodeksi chet elda sodir etilgan jinoyatlari uchun O'zbekiston fuqarolari va Respublikada doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni, sodir etgan jinoyati uchun, agar ular chet elda jazolanmagan bo'lsa jinoiy javobgarlikka tortish imkoniyatini beradi.

Ayrim xuqushunos olimlarning fikricha "Jinoyat kodeksi 12-moddasi mazmunida jazo deganda, faqatgina davlat majburlov choralari emas, balki sodir etilgan jinoiy qilmish uchun xorijiy davlatlarning qonunlarida ko'zda tutilgan barcha xuquqiy oqibatlarni tushunish zarur. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksiga ko'ra, sud xukmiga muvofiq shaxs javobgarlikdan ozod qilingan bo'lsa yoki o'z jinoiy xulqi uchun boshqa xuquqiy ta'sir choralari qo'llanilgan bo'lsa, javobgarlikka tortish mumkin emas. Bu o'rinda, davlatimiz qonunida bu masalaga oid jazo turi va me'yori, konkret ta'sir etish chora tadbirlari ko'zda tutilgani yoki tutilmagani ahamiyatsizdir" deb ta'kidlaydilar. Bunday fikrlarni amaliy jihatdan mutloq to'g'ri deb qo'llab quvvatlaymiz, nazariy jihatdan esa "jazo" so'zini "jinoiy javobgarlik" degan so'zlar bilan almashtirishni ma'qulroq deb bilamiz. Sababi "jinoiy javobgarlik" tushunchasi "jazo" tushunchasidan kengroqdir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 16-moddasida jinoyat uchun javobgarlik tushunchasiga ta'rif berilgan unga ko'ra "Jinoyat uchun javobgarlik – jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir" deb belgilangan. Ya'ni "jazo" tushunchasi "jinoiy javobgarlik"ni amalga oshirish shakllaridan biri ekanligi, shaxs nafaqat sodir etgan jinoyati uchun sud tomonidan jazoga tortilishi, balki jazo turiga

kirmaydigan sud tomonidan hukm qilish (masalan: shartli xukm kilish, oqlov xukmi) yoki boshqa ta'sir choralari (masalan: tibbiy yo'sindagi majburlov choralari) shakllarini ham qo'llanilishi mumkinligidan kelib chiqadi. Bu shart sharoitga va umuman fuqarolik tamoyilini qo'llashga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat:

1. Jinoyat sodir etgan shaxsga davlat nomidan sud hukmi chiqarish;
2. Aybdorga nisbatan jazoni ijro etish.

Mazkur shartlardan biri bajarilmaganda, tergov va sud organlari tomonidan jinoyat sodir etgan shaxs, O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksiga ko'ra javobgarlikka tortiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining fuqarolik tamoyili, hududida jinoyat sodir etilgan davlatning jinoyat konuni hududiylik tamoyili bilan raqobatlashadi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi ushbu raqobatni umumiy qabul qilingan xalqaro huquqiy me'yorlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tomonidan jinoyat sodir etilgan davlatning jinoyat qonuni foydasiga hal qiladi. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi fuqarosi chet davlat jinoyat kodeksiga muvofiq, jinoyat sodir etilgan davlatning huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan jinoiy javobgarlikka tortiladi. Agar turli sabablarga ko'ra (masalan, jinoyatchi qochib ketgan bo'lsa), O'zbekiston Respublikasi fuqarosi chet davlat hududida sodir etgan jinoyati uchun xorijiy davlatda sudlanmagan bo'lsa va ushbu jinoyat uchun uchinchi davlatda xam jazolanmagan bo'lsa, u holda bunday O'zbekiston Respublikasi fuqarosini O'zbekiston jinoyat kodeksiga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortish uchun barcha asoslar mavjud bo'ladi.

1966 yildagi "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro paktga asosan bir xil jinoyat uchun hyech kim ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Fuqarolik tamoyilining tarkibiy elementi sifatida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq javobgarlikka tortishni istisno etuvchi holatlar, davlatlarning xalqaro amaliyotida "hyech kim ikki marta sudlanishi mumkin emas" tamoyili, odatda bir davlat doirasida amal qiladi. Ta'kidlanganidek, agar O'zbekiston fuqarosi yoki O'zbekiston hududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxs xorijiy davlatda uning hududida yoki boshqa davlat hududida sodir etgan jinoyati uchun sudlangan bo'lsa, O'zbekistonga qaytib kelganidan keyin uni O'zbekiston Jinoyat kodeksiga muvofiq ikkinchi marta sudlash mumkin emas. Ikki tomonlama jinoyat tamoyiliga muvofiq, O'zbekiston Jinoyat kodeksiga asosan jinoiy javobgarlikka tortish uchun shaxs tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish O'zbekiston va jinoyat sodir etilgan davlatning jinoyat qonuni bilan jinoyat deb tan olinishi kerak.

Aslini olganda, bu yondashuv juda demokratik bo'lishi bilan birga qilmishning haqiqatan ham ijtimoiy xavfli ekanligidan dalolat beradi, uni sodir etish, kamida ikki davlat qonunlari bilan taqiqlanganligi bilan tasdiqlanadi. Shu bilan birga, ikki tomonlama jinoyatchilik hududiy va fuqarolik tamoyillari

o'rtasidagi muayyan o'zaro ta'sir haqida gapiradi. Bunday xollarda sodir etilgan jinoyat, davlatning jinoyat qonunchiligiga va shaxsning fuqaroligiga mos kelmasligi mumkin. Farqlar qilmishning nomida ham, u yoki bu jinoyatlar guruhiga mansubligida ham, jinoyat tarkibi belgilarida va boshqalarda ham bo'lishi mumkin. Bunday farqlar qilmishning ikki tomonlama jinoiyligi yo'qligini tan olish uchun asos bo'lmasligi kerak. Ta'kidlash lozimki, chet davlat qonunchiligida qilmish jinoyat qonunida taqiqlangan bo'lsa ham, sud va tergov organlari ishni ko'rishda konkret qilmish uchun aybdorni jazolash imkoniyati bor yoki yo'qligidan kelib chiqmay, bunday jinoyat shu davlatda jinoiy jazolanadigan harakat deb baholanadimi yoki yo'qmi, degan savoldan kelib chiqishi kerak. Aks holda, jinoyat sodir etgan shaxsning javobgarlikka tortilmasligi davlat va jamiyatga, amaldagi boshqaruv tartibiga, xavfsizlikka, davlat hokimiyati tizimiga qarshi yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

A.G.Knyazovning fikricha "Bunday jinoyatlarga mansabdor shaxslarga (pora olish), odil sudlovga (sud hujjatini ijro etmaslik), konstitusiyaviy tuzum va davlat xavfsizligi asoslariga qarshi (davlatga xiyonat) va boshqa jinoyatlar kiradi. Xorijiy davlatda ushbu jinoyatlardan birortasining sodir etilishi yoki "qo'shaloq jinoyat" belgisining yo'qligi yoki qilmishda milliy va xorijiy davlat jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyatlarning turli belgilarining mavjudligini anglatadi. Masalan: muayyan davlat fuqarosi tomonidan xorijiy davlat hududida davlat sirlarini qasddan oshkor qilish, xorijiy davlatning jinoyat qonuniga muvofiq jinoyat hisoblanmaydi. Muayyan davlat fuqarosi o'z vataniga qaytgach, ushbu fuqaroni milliy jinoyat qonuniga muvofiq davlat sirlarini oshkor qilgani uchun ikki tomonlama jinoyat yo'qligi sababli, jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas, bunday holda chet davlatda sodir etilgan qilmish, uning jinoiy qonunchiligiga ko'ra jinoyat deb e'tirof etilmagani uchun jinoyat sodir etish jazosiz qoladi" deb xisoblaydi. Aftidan, fuqarolik tamoyili to'g'risidagi qoidalar muvaffaqiyatli o'rnatilmagan mamlakatlarda shunday tushuncha kelib chiqishi mumkin. Bundan tashqari xorijiy tajribada ko'pchilik davlatlar jinoyat qonunchiligida ikki tomonlama jinoyat tamoyili mavjud emas. Jumladan, Ukraina, Yaponiya, Koreya Respublikasi jinoyat kodekslari ikki tomonlama jinoyat qoidasisiz fuqarolik tamoyilini belgilaydi. Bundan tashqari xorijiy tajribada fuqarolik tamoyilini qo'llashda davlatlarning parallel yurisdiksiyasi paydo bo'lishi mumkin. Bular ikki fuqarolikka ega bo'lgan shaxslar (bipatrid) ya'ni ularning fuqarosi bir vaqtning o'zida bir shaxs bo'lishi mumkin. Xalqaro huquqiy amaliyot bunday hollarda "samarali fuqarolik" tamoyilidan kelib chiqadi. Ikkita milliy qonunlar raqobatlashganda, bipatrid va uning oilasi doimiy istiqomat qiladigan, ishlayotgan va siyosiy va ijtimoiy huquqlardan foydalanadigan davlatning jinoyat qonuni qo'llaniladi. Shu bilan birga, davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama kelishuvlar, shuningdek, bipatrid tomonidan sodir etilgan jinoyatning har bir holatida ushbu davlatlarning davlat organlarining aniq roziligi katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xorijiy davlatlarning jinoiy-huquqiy amaliyotida jinoyat qonunchiligi makon bo'yicha amal qilishi hududiylik, fuqarolik va universal prinsiplardan tashqari, real (aniq) prinsipiga ham e'tibor qaratiladi. Real prinsip – chet el davlati fuqarosi yoki muayyan davlatda doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan, boshqa bir davlat manfaatlariga, uning fuqarolariga qarshi qaratilgan jinoiy qilmishlar uchun, garchi qilmish ushbu davlat hududida sodir etilmagan va xalqaro shartnomalarda nazarda tutilmagan bo'lsa xam jinoiy javobgarlikka tortish imkoniyatini beradi. Rossiyalik ilmiy tadqiqotchi A.A.Makasayeva ilmiy-nazariy qarashlarida: "Real prinsip fuqarolarning konstitusiyaviy huquqlari va davlat manfaatlarini himoya qilish yo'lidir, bu tamoyil u yoki bu shaklda deyarli barcha xorijiy mamlakatlar qonunchiligida o'z aksini topgan, faqat ayrim davlatlarning, xususan, Qirg'iziston, O'zbekiston, Laosning jinoyat kodekslari bundan mustasno" – degan fikrlar bildirilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksida real prinsipining amal qilishiga doir biror norma mavjud emas. Shu bois xorijiy va ilmiy-amaliy tajribadan kelib chiqib bunday normani O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonuniga kiritilishini maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz. Shuningdek, jahon hamjamiyatining shiddat bilan rivojlanishi va globallasuvi, O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlariga, shu jumladan jinoyatchilikka qarshi kurashdagi ishtirokiga, jinoyat qonunining amal qilish doirasi chegarasini tartibga solishda qonunchilikka kiritiladigan o'zgarishlarga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunining amal qilish doirasining har qanday tamoyilini qonunchilik bilan takomillashtirish va qo'llash xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillariga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq bo'lishi, agarda bu borada nomuvofiqlik yuzaga kelsa, xalqaro huquq normalari qo'llanilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risidagi Qonuni, 13.03.2020 yil O'RQ-610-son Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.03.2020 y., 03/20/610/0299-son.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Rasmiy nashr. – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025y;
3. M.H.Rustamboyev Jinoyat huquqi (umumiy qism) Darslik. Toshkent – "ilm ziyo" – 2006 y. 85-bet
4. Knyazev Anatoliy Gavrilovich. Deystviye ugovnogo zakona v prostranstve. Dissertasiya. Ulyanovsk – 2006 g. s-110-111
5. A.A.Makasayeva "Realniy prinsip deystviya ugovnogo zakona v prostranstve". Moskva.2019 yil
6. A.Yakubov, R.Kabulov Jinoyat huquqi. Darslik Umumiy qism. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2005 yil. 77-bet
7. <https://e-library.namdu.uz/67> Jinoyat xuquqi 5 tomlik.pdf
8. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>